

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025  
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

## ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>M.A.Jo'rayeva</b>	
Safarnomaning paydo bo'lishi va janr sifatida shakllanishi .....	5
<b>S.A.Xaqnazarova</b>	
Abdulla Sher lirikasida formal an'analar .....	8
<b>S.A.Odilova</b>	
Badiiy asarda ikkinchi darajali personajlar talqini .....	12
<b>B.N.Isakova</b>	
O'tkir Hoshimov va Jek London ijodida mavzular ko'lami qiyosiy tahlili .....	15
<b>Sh.R.Maxamadjonova</b>	
Adabiyotda aforizm tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari .....	19
<b>M.S.A'zamjonova</b>	
Kitobxon kodi: badiiy asarda psixologizm .....	22
<b>G.Xaydarova</b>	
"Ona lochin vidosi" romanida kolliziya konflikt .....	26
<b>M.Б.Ботирова</b>	
XX asr o'zbek adabiyotida psixologik taxlilning o'ziga xos xususiyatlari .....	28
<b>A.Baba</b>	
Comparison of eastern and western variants of the <i>Koroglu</i> epic .....	31

## TILSHUNOSLIK

<b>I.M.Azimov</b>	
Qayum ramazon va uning "O'zbek tilining birlashgan imlo qoidalari" risolasi xususida .....	37
<b>M.F.Yo'ldasheva</b>	
Jek London asarlar tarjimalarining lingvopragmatik tadqiqi .....	43
<b>U.T.Muratbaeva</b>	
Lexical and semantic features of the expression of ethical concepts in the karakalpak language .....	50
<b>S.B.Hafizov</b>	
The semantic network of "head" in english and uzbek based on lexical field comparison .....	54
<b>R.T.O'rinboyeva</b>	
Qo'shrabot tumani shevasining fonetik xususiyatlari .....	59
<b>A.B.Vosiljonov</b>	
Farg'ona viloyati shevalari bazasini yaratishning umumiy nazariy asoslari .....	63
<b>M.V.Ahmadova</b>	
Syllable rhythm and prosody: the theory of classification of languages by rhythm and the manifestation of isochrony in the poetic system .....	68
<b>M.N.Najmiddinova</b>	
Linguopragmatic analysis of phraseological units and idioms relating to the concept of hospitality in english and uzbek .....	73
<b>N.A.Beknazarova, M.Y.Madiyeva</b>	
The definition and key components of communicative competence in language learning .....	85
<b>X.A.Sarimsokov</b>	
Sport sharhlarini asosini tashkil qiluvchi leksik birliklarning diaxron tadqiqi .....	88
<b>S.A.Raxmonberdiyeva</b>	
Qurilish sohasiga oid ingliz va o'zbek tillaridagi leksik birliklarning lingvistik tahlili .....	93
<b>X.A.Asqaraliyeva</b>	
Media-kommunikativ muloqotda paralingvistik vositalar .....	96
<b>H.X.Bozorov</b>	
O'zbek xalq ertaklaridagi obrazlar: lingvopoetik, badiiy va falsafiy tahlil .....	100

**BADIIY ASARDA IKKINCHI DARAJALI PERSONAJLAR TALQINI****ТОЛКОВАНИЕ ВТОРОСТЕПЕННЫХ ПЕРСОНАЖЕЙ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПРОИЗВЕДЕНИИ****INTERPRETATION OF SECONDARY CHARACTERS IN A LITERARY WORK****Odilova Sadoqat Abduqodir qizi** 

Shahrisabz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada adabiy asarda personaj tushunchasi, xususan, ikkinchi darajali personajlarning badiiy-funksional vazifalari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — o‘zbek adabiyoti namunalarda ikkinchi darajali personajlarning syujet dinamikasi, bosh qahramon xarakterini ochish va ijtimoiy muhit tasviridagi o‘rnini aniqlash hamda ilmiy asosda yoritishdan iborat. Tadqiqotda adabiyotshunoslik nazariyasi, personaj konsepsiyasi va badiiy matn tahlili metodlaridan foydalanilgan. Xususan, Xurshid Do‘stmuhammadning “Iffat” va “Yoqub izquvarning xiyalasi” hikoyalari misolida amaliy tahlil o‘tkazilib, undagi ikkinchi darajali personajlarning syujet va g‘oya rivojidagi funksional roli ochib berilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ikkinchi darajali personajlar asarning syujet tuzilishi, asosiy qahramon xarakterining psixologik ochilishi va jamiyat muhitining badiiy ifodalanishida muhim vosita bo‘lib xizmat qilishi aniqlangan. Xulosa o‘rinda esa bunday personajlarning ilmiy-tahliliy o‘rganilishi badiiy asarning g‘oyaviy-badiiy tizimini to‘laqonli anglashga xizmat qilishi ta’kidlangan.

**Аннотация**

В данной статье анализируется понятие персонажа в художественном произведении, в частности, художественно-функциональные задачи второстепенных персонажей. Основная цель исследования — определить и научно обосновать роль второстепенных персонажей в развитии сюжета, раскрытии характера главного героя и отражении социальной среды на примере произведений узбекской литературы. В исследовании использованы методы литературоведческой теории, концепции персонажеведения и анализа художественного текста. В частности, на примере рассказов Хуршида Дустмухаммада «Ифбат» и «Хитрость Якуба-сыщика» проведён практический анализ, в ходе которого выявлена функциональная роль второстепенных персонажей в развитии сюжета и идейного содержания. Результаты исследования показали, что второстепенные персонажи играют важную роль в сюжетной структуре произведения, психологическом раскрытии главного героя и художественном отображении социальной среды. В заключение подчёркнуто, что научный и аналитический подход к изучению таких персонажей способствует более полному пониманию идейно-художественной системы произведения.

**Abstract**

This article analyzes the concept of character in literary works, particularly focusing on the artistic and functional roles of secondary characters. The main objective of the research is to determine and scientifically substantiate the position of secondary characters in the plot dynamics, the revelation of the main character's personality, and the depiction of the social environment in examples of Uzbek literature. The study employs methods of literary theory, character studies concepts, and artistic text analysis. Specifically, a practical analysis was conducted based on Khurshid Dustmuhammad's short stories "Iffat" and "Yoqub the Detective's Trick", revealing the functional role of secondary characters in the development of the plot and ideas. According to the results of the research, secondary characters serve as an essential means in shaping the plot structure, psychologically revealing the main character, and artistically portraying the social environment. In conclusion, it is emphasized that the scientific and analytical study of such characters contributes to a fuller understanding of the ideological and artistic system of the literary work.

**Kalit so‘zlar:** personaj, bosh qahramon, ikkinchi darajali personaj, ijtimoiy muhit, badiiy konsepsiya, asar dinamikasi.

**Ключевые слова:** персонаж, главный герой, второстепенный персонаж, социальная среда, художественная концепция, динамика произведения.

**Key words:** character, main protagonist, secondary character, social environment, artistic concept, narrative dynamics.

**KIRISH**

Adabiyot – inson ruhiyati va jamiyat hayotini ochib berishda muhim omil hisoblanadi. Uning markazida hamisha inson va uning taqdiri turadi. Har qaysi turdagi badiiy asarning asosini voqealar

## ADABIYOTSHUNOSLIK

rivoji hamda personajlar tashkil qiladi. Ushbu atama umumiyroq ma'no kasb etadi. Asardagi har qanday obraz personaj bo'la oladi. Lekin har qaysi personaj ham bosh qahramon darajasiga chiqmaydi. Shu jihatdan bu ikki tushuncha o'zaro farqlanadi. Chunki personajlar orqali ijodkor inson tabiatining turli qirralarini ochish va insoniy qadriyatlarini yoritishga harakat qiladi. Personaj tushunchasi adabiyotshunoslikda avvaldan dolzarb mavzu bo'lib kelgan. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab adabiy tanqid va nazariyada personajlar masalasi alohida tahlilga olina boshladi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Adabiy asar syujeti va g'oyaviy-badiiy tizimini tashkil etishda bosh qahramon (asosiy personaj)lar bilan bir qatorda ikkinchi darajali personajlarning ham ahamiyati katta hisoblanadi. Ular asar syujetining harakatini rivojlantirish, bosh qahramonning xarakterini ochib berish va muayyan g'oya, ijtimoiy muhitni yoritishda vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ushbu istilohga "Adabiyotshunoslik lug'ati" da quyidagicha ta'rif beriladi: Personaj (lot.persona – shaxs, teatr maskasi) badiiy adabiyotdagi inson obrazi, adabiy asardagi voqea ishtirokchisi, his-kechinma va nutq subyekti. Personaj termini qahramon, ishtirok etuvchi (dramatik asarda), xarakter terminlari bilan bitta sinonimik qatorni tashkil qilib, ma'no jihatidan neytral bo'lgani bois bu qatorda dominanta vazifasini o'taydi. Biroq hamma personajlarga nisbatan qahramon, ishtirok etuvchi, xarakter terminini ishlatib bo'lmaydi. Zero, ular asarda o'zining tutgan mavqeyi, tashiyotgan g'oyaviy-badiiy yukning salmog'i, voqealardagi ishtiroki, umumlashtirish darajasi kabi qator jihatlari bilan farqlanadi, darajalanadi. [4.223]

Demak, asarda qimirlaganki inson obrazi bo'lsa – katta yoki kichikligi, syujetdagi ishtiroki, asar strukturasi tutgan o'rnidan qat'i nazar – hammasini personaj deb atash mumkin.[2.99]

Adabiy personajlar ichida bosh qahramon atrofida harakat qiluvchi va voqealar rivojiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi personajlar ikkinchi darajali personajlar hisoblanadi. Ikkinchi darajali personajlar asar qahramonlari tegrasida harakatlanib, syujet rivoji va badiiy konsepsiyaning ifodalanishida ma'lum rol o'ynagani holda, asosan, qahramon xarakterini ochishga, u harakatlanayotgan muhitning xususiyatlarini, uning taqdirini ko'rsatishga xizmat qiluvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.[1.178] Ular bosh qahramon bilan muayyan munosabatda bo'lib, asar mazmunini to'liq ochilishiga yordam beradi. O'zbek adabiyotshunosligida ham bu masala alohida o'ringa ega. Jumladan, G'afur G'ulom, Odil Yoqubov, Abdulla Qodiriy kabi bir qancha ijodkorlar asarlarida ikkinchi darajali personajlar muhim badiiy funksiyaga ega.

Ikkinchi darajali personajlar asarda bir qancha vazifalarni bajaradi. Masalan:

1. Syujetni harakatlantiruvchi kuch. Bunda ba'zan ikkinchi darajali personaj voqealar rivojini yangi bosqichga olib chiqadi yoki asosiy qahramonning taqdiriga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, Xurshid Do'stmuhammadning "Iffat" hikoyasi bosh qahramoni Mahzuna ismli juvon. Ikkinchi darajali qahramonlardan biri Bo'ri Sobitovich esa, syujetni harakatlantiruvchi kuch sifatida ishtirok etgan.

2. Asosiy qahramon xarakterini ochish vositasi. Ikkinchi darajali personajlar orqali bosh qahramonning ichki olami, qarashlari va fazilatlarini ochib beriladi. Ular asosiy obrazga kontrast, muqobil yoki yordamchi sifatida ishtirok etadi.

3. Ijtimoiy muhitni ifodalash. Ko'pgina asarlarda ikkinchi darajali personajlar ma'lum bir ijtimoiy qatlam vakili sifatida muayyan g'oyani ifodalaydi.

Badiiy asarda qahramon obrazini ochish, uning xarakterini aniqlash va asarning umumiy badiiy-estetik qiymatini oshirish vositasi personaj portreti hisoblanadi. Jumladan, ikkinchi darajali personajlarning portreti ham asar kompozitsiyasida muhim ahamiyatga ega. Odatda, bunday portret bosh qahramonning xakteri, munosabatlari yoki ichki kechinmalarini ochishda fon vazifasini bajaradi. Badiiy asardagi pesonajlar portreti shartli ravishda statik portret va dinamik portret turiga ajratiladi.[3.64]

### NATIJA VA MUHOKAMA

Ikkinchi darajali personajlarning asardagi vazifasi, bosh qahramon xarakterini ochishdagi o'rnini Xurshid Do'stmuhammadning "Yoqub izquvarning xiylasi" hikoyasi orqali ham ko'rishimiz mumkin. Ushbu hikoya hayotdagi ijtimoiy va insoniy muammolarni ochib beradi. Asar markazida turli qirralarga ega personajlar turadi. Ularning xarakterlari, dunyoqarashlari orqali muallif jamiyatning muhim muammolarini ochib beradi. Hikoyaning bosh qahramoni Yoqub to'ram umrini mehnatga bag'ishlagan inson. Ustidan hazil qilishsa, pismiqlik deyishsa ham tuyg'ularini ichida saqlagan. Yoshi

oltmishdan o'tganda kallasi "boshqacharoq" ishlab cho'ntagi pul ko'rgan, o'zi "to'ra"ga aylangan shaxs. Hikoyadada yozuvchi tomonidan bir nechta ikkinchi darajali personajlar keltiriladiki, ular Yoqub to'raning xarakterini ochishga va voqealar rivojini oldinga harakatlantirishga xizmat qiladi. Shulardan biri allazonlar o'lib ketgan tog'asining nabirasi bo'lib, besh o'g'li bekor ekanini aytib, yoningizga oling degan iltimos bilan keladi. Muallif personajning aynan ismini keltirmagan bo'lsa ham, Yoqub pismiqning Yoqub to'raga aylangach uzoq qarindoshlar orasida ham dong'i chiqib qolganini, hurmati oshganini ayni shu qahramon orqali ifoda qiladi. Ikkinchi darajali personajlardan yana biri "ixcham qaychilangan mo'ylabchasi o'ziga xo'p yarashgan" o'rta yoshlardagi do'mboqqina yigit. Hikoya davomida uning Dolim do'xtir ekanligi, hozirda "zamonaviy kasb" bilan shug'ullanishi ma'lum bo'ladi. Ayni shu personaj bizga hikoya boshidan beri anglanmagan Yoqub to'raning "hunar"ini ochiqaydi. Asarda do'mboq yigit boy edi degan fikr ta'kidlab aytilmaydi. Lekin muallif uning o'ziga to'q ekanini signal so'zlar orqali ifodalaydi. Uning uch eshik nariyog'da turgan "ajnabiy" mashinasiga bir nazar tashlab qo'yib, gapni boshlashidan o'quvchi "mijoz"ning moliyaviy ahvolini ham yaxshi anglab oladi. Do'xtirning qaynamalik ekanligi haqidagi ma'lumotning berilishi To'raning ovozi besh-olti mahalla naryoqqa ham tarqalganini bildiradi.

Hikoyadagi ikkinchi darajali personajlardan yana biri Shokarim va uning xotini obrazi. Asarda Shokarim obrazi zamonaviy jamiyatdagi moliyaviy tomondan ta'minlangan, lekin oilaviy munosabatlarda sustkash, mustaqil qaror qabul qila olmaydigan erkak sifatida gavdalanadi. U realistik obraz yaratish qonuniyatlari asosida yaratilgan bo'lib, o'z zamonasining iqtisodiy farovon, biroq ma'naviy zaif erkak tipini ifodalaydi. Uning tashqi portreti aynan chizilmasa ham yozuvchi psixologik portretlashtirish orqali uning xarakter xususiyatlarini ochib beradi. Xarid jarayonida uning ayoliga ko'r-ko'rona bo'ysunishi, hatto olma xarid qilishda ham o'z fikrini bildirmasligi – bu holat ushbu personajning oiladagi ikkinchi darajali rolini ko'rsatadi. Xotini uning har bir harakatini izma-iz kuzatib, o'z hukmini o'tkazadi. "Men bunday olma yemayman", -deb turib oldi.[5] Bu jumla xotinning hukmronligini va Shokarimning esa unga bo'ysunishini aniq ifodalaydi. Piyoz xarid qilish jarayonida ham Shokarim bir qarorga kelishga jazm qilganday bo'ladi, amm xotini noroziligi sabab yana orqaga chekinadi. Umuman olganda, Shokarim jamiyatda uchrab turadigan, moliyaviy jihatdan farovon bo'lsa-da, oilaviy qarorlarda qat'iyati yo'q, ayolining hukmiga bo'ysunuvchi, jamiyatdagi erkak rolini to'liq bajarmayotgan obrazdir. Yozuvchi bu obraz orqali ma'lum bir erkaklarning o'zligini, oila ichidagi rollarning buzilish holatini yengil kinoya orqali ochib bergan. Shokarimning xotini nutqidan aytilgan: "Atayin archishgayam, to'g'rashgayam qulay bo'lmaganidan oling! Ja, taltaytirib yubordiz, o'sha suyuqli kelinizzi!"[5] jumlasini bu obrazning faqatgina eriga hukmronlik qilish bilan cheklanmay, oiladagi boshqa a'zolar – ayniqsa, keliniga nisbatan ham o'z noroziligini ochiq bildiradi. Shu jumla ichida uning xarakteridagi qattiqlik, talabchanlik, hukmronlik jihatlari ham ko'zga tashlanadi.

#### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ikkinchi darajali personajlar asarning syujet qurilishi, asosiy qahramon xarakterining ochilishi va ijtimoiy muhit tasvirini yaratishda faqatgina ikkilamchi rol bilan cheklanib qolmay, asarning badiiy strukturasi va syujetining dinamikasini shakllantirishda muhim funksiyalarni bajaradi. Demak, ikkinchi darajali personajlar badiiy matnda syujetga qaratilgan yordamchi, shu bilan bir qatorda mustaqil badiiy qiymatga ega obrazlar sifatida qaralishi kerak. Ularning ilmiy-tahliliy o'rganilishi asarning umumiy mazmunini to'liq anglashga xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent.: Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2004.
  2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent.: Navoiy universiteti, 2018.
  3. Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.
  4. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик Луғати. – Toshkent.: Akademnashr, 2013.
- [Ziyo istagan qalblar uchun! - Xurshid Do'stmuhammad \(1951\)](#)